BOSHLANG‘ICH SINFLARDA ONA TILI FANINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY YANGICHA YONDOSHUVLAR

Lapasova Aziza Sherali qizi - Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada ona tili fanini o‘quvchilarga o‘rgatishda zamonaviy yangicha yondoshuvlarning ahamiyarti va uning dars jaraynidagi samaradorligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Zamonaviy texnologiyalar, an’anaviy usullar, o‘quvchilarning savodxonligini oshirish.

Avvalambor, shuni aytib o‘tish joizki, hozirgi zamon talabidan kelib chiqqan holda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va har bir masalani tub mohiyatini aniq tushunishlari uchun katta imkoniyatlar yaratilmoqda.

Bugungi kunda o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini oshirishda ona tilining ahamiyati juda katta bo‘lib, bu fan o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og‘zaki va yozma ravishda to‘liq bayon qilishga, savodxonlik darajasini hamda ijtimoiy hayotda tutgan o‘rni bevosita “Ona tili” fanidan hosil qilingan bilimlari va malakasi asoslariga quriladi.

Ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga bilim berish, zamonaviy hamda samarali innovatsion metodlardan foydalanish va dars jarayonida turli xil usullar hamda AKT vositalaridan samarali foydalanish natijasida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, o‘quvchilar o‘rtasida fanga bo‘lgan qiziqishlarining ortishi, olingn bilimlardan kelgusi faoliyatida samarali foydalanishga katta yordam beradi.

Ona tili - har bir elatning, xalqning, millatning o‘z tilidir. Ona tilini hurmat qilgan inson uni chuqurroq o‘rganishga harakat qiladi. Shuni takidlab o‘tishimiz kerakki, ona tili inson hayoti davomida uni mantiqiy fikrlashga, hayotga to‘g‘ri munosabat bildirishiga va hayotda o‘z o‘rnini topishiga katta ko‘mak beradi. Mustaqil ya‘ni shaxsiy fikri bor inson albatta har bir joyda o‘z o‘rnini topadi. Ona tili fanini bog‘cha davridan boshlab, bolalarga boshlang‘ich tushunchalarni o‘rgatish talab qilinadi. Boshlang‘ich sinflarda o‘quvchilarga ona tilini samarali va oson usullarda tushuntirish va ularning fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga qaratiladi. O‘quvchilarda to‘g‘ri yozish ko‘nikmalarini shakllantirish. Bu masalalarni o‘rganishda asosan o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi to‘siq yo‘qolishi kerak. Ya‘ni o‘quvchi o‘qituvchi oldida balki butun sinfdoshlarini oldida fikrini aniq va tiniq bayon eta olishi muhim. O‘qituvchi yana qiziqarli metodlardan foydalanish va bu metodlarning samarasini oshirishga katta e’tibor qaratishi lozim. Bolalar birinchi navbatda alifbedan harflarni o‘qish, uni

yodlash bilan mashg‘ul bo‘ladi. Ular harflarni tanigani bilan ulardan harf yozish ko‘nikmalari asta sekin shakllanadi.

Bola har bir yangi fanga boshida boshqacha qiziqish bildiradi, uni shu qiziqishini saqlab qolish o‘qituvchining yillar davomida to‘plagan malakasiga bog‘liq. Shunday ekan hozirgi davr talabidan kelib chiqib o‘qituvchi har tomonlama bilimli va psixolog bo‘lishi ham talab etiladi. Ona tili darsida har bir mavzuga alohida samarali metodlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinflarda “Mustahkamlash darslari” yoki “Takrorlash darslari” da turli topshiriqlardan foydalanish dars mazmunini anada boyitadi. Masalan, “Unli va undosh tovushlar” haqida yetarlicha ma‘lumotlar berilgach, bunda asosiy e‘tibor so‘zlarning aytilishi va yozilishi o‘rtasidagi farqqa qaratiladi. Bunday yo‘l tutishdan asosiy maqsad o‘quvchilarning aksariyati imlo qoidalarini puxta o‘zlashtirmaydi, bu amaliyotimiz esa ularning bilimini mustahkamlab, imlo qoidalari haqida qisqacha bo‘lsa ham tushuncha beriladi.

Kundan - kunga umumta‘lim maktablarida “Ona tili” fanini o‘zlashtirishda o‘quvchilarning yozma nutq malakalarini oshirish yangi pedagogik texnalogiyalar, boy tajribalar va qiziqarli o‘yinlar orqali mashg‘ulotlarni olib borish orqali kutilgan natijalarga erishishimiz mumkin. O‘quvchilarning o‘z fikrini yozma bayon qilishida ona tili ta‘limi jarayonida egallagan ko‘nikma va malakalari u yaratgan matnda aks etadi. Uning tasavvur doirasi keng bo‘lsa har bir matni juda tasirli va mazmunli bo‘lib chiqadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matn tuzdirish ularning psixologiyasini, balki to‘gri yozish qoidalariga amal qilganliklarini ham tekshirish mumkin.

Hozirda ona tili darslarida qo‘llansa yaxshi natija beradigan metodlardan misollar keltirmoqchiman. “Kim hakam” metodi ona tili darsida o‘tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida qo‘lllasak maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda o‘quvchilardan tezkorlik, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarining shakllanishi kelib chiqadi. Ular fikrini darsga qaratib, fikrini jamlashga harakat qiladi. O‘qituvchi tomonidan ma‘lumotlar tezkorlik bilan aytiladi. Jamoalarga bo‘linga o‘quvchilar esa bu ma‘lumot xato yoki to‘g‘ri ekani haqida ma‘lumot berish uchun kartochkalardan foydalanadi. Bunda ma‘lumot hato bo‘lsa “Qizil kartochka”, aksincha to‘g‘ri bo‘lsa “Yashil kartochka” ni ko‘tarishadi. Natijalarni aniqlab borishga har bir guruhga nazoratchilar biriktiriladi. Bu metodda har bir o‘quvchi qatnashadi. Bunda a‘lochi ham o‘rta o‘qiydigan ham passiv o‘qiydigan o‘quvchi ham sergak tortib darsga qatnashadi. Chunki sinfda o‘tirgan o‘quvchilar yaqindagina o‘yinlar olamidan kelgan. Agar o‘qituvchi ta‘limiy o‘yinlarni o‘ylab qiziqarli qilib o‘tkazsa bolada „hayratlanish“ tuyg‘usi uyg‘onadi. Ta‘lim tarbiyaning ana shu jarayoni o‘quvchilarning yodidan chiqmaydi va o‘yindan ko‘zda tutilgan maqsadga erishiladi.

"Kim ko'p so'z tuzish" bunda mavzuga doir so'zlardan har bir guruhga uchtadan so'z beriladi. So'zlar murakkabroq bo'lishi kerak. Masalan, kitobxon kabi so'zlar beriladi. O'quvchilar shu so'zdagi harflardan bir daqiqada ko'proq so'z topishi kerak. Qaysi kamanda ko'proq so'z topsa shu kamanda a'zolari rag'batlantiriladi.

Yana shunga o'xshash metodlarni qo'llash darsning samaradorligini oshirib beradi. Hozirgi vaqtda izlanuvchan va tajribali o'qituvchilar bilish faoliyatini jadallashtirishda ta'lim jarayonida didaktik o'yin bilan uyg'unlashtirib samarali natijalarga erishib kelmoqdalar.

"Izoh ber" o'yini. Bu o'yinda "Dam olish daqiqasida" foydalanish mumkin. Oq qog'ozda boshqa tillardan o'zlashtirilgan yoki ma'nosi qiyin so'zlar, ko'p ma'noli so'zlar yozilib, doskaga ilinadi. O'quvchilar navbat bilan chiqib, so'zlarning izohini yozadilar. Bu usul o'quvchilarni hamjihatlikka tarbiyalaydi. Bog'lanishli matn yaratish malakasi rivoj topadi. O'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi. Darslarning aralash turlarida,takrorlashlarda bu o'yindan foydalanish mumkin.

"Ma'nodoshini top" o'yini, bunda oq qog'oz va markerdan foydalaniladi. O'quvchilar birin ketin oq qog'ozda berilgan so'zlardan bittasinig ma'nodoshini topishadi. Masalan:

Yozuvchi- adib, muallif, avtor

Qadimiy - ko'xna, eski, azaliy

Yuz -aft, bashara, chehra, oraz shu tarzda doskaga chiqib yozadilar. Bunda o'quvchilarning so'z boyligi oshadi. Bu so'zlarni o'rganishdan maqsad o'quvchilarning nutqining chiroyli bo'lishiga ham katta yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim mumkinki, o'quvchilarning bilimini oshirishda ona tilining o'rni bo'lakchadir. Ona tili fanida o'quvchilarning yozma savodxonligi, imlo qoidalarini mukammal o'zlashtirganligi va yozma nutqining, husnixat qoidalariga amal qilib yozishi bu o'quvchilarni kelajagida balki butun jamiyatning kelajagida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ular ham kelajakda o'qituvchi kasbini tanlasa bolalarga yangi tehnologiyalaridan foydalanib dars o'tadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rasulova R.B. Ona tili fanini o'qitishda iqtidorli o'quvchilarni aniqlash va ularning nutq madaniyatini oshirishda pedagogik tehnalogiyalar.

2. Baykabilov U.A. Ta'limda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish bosqichlari.

3. Xolbekov S.B. Adabiyot darslarida ijodkor tarjimai holini o'rgatish xususida.

4. Jumaniyozov S.A. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ona tili fanini o'qitishda ona tilidan sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish.